Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

ADABIYOT, MADANIYAT VA IJODIY TARJIMA

03 October 2026

UDK 82

Kristof Ransmayr ijodida tarix, mif va postmodernistik tafakkur

Lutfulla Tashkuvatovich Kholiyarov*

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti

✉ kholiyarov72@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy Avstriya adabiyotining yirik vakili Kristof Ransmayrning hayoti va ijodiy faoliyati hamda uning adabiy merosining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining “Muz va zulmat dahshatlari”, “So‘nggi dunyo” va “Morbus Kitahara” romanlari syujet, kompozitsiya, vaqt va makon, tarixiy voqelik hamda badiiy-fantastik tasvir uyg‘unligi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. “Muz va zulmat dahshatlari” romanida tarixiy Shimoliy qutb ekspeditsiyasi va zamonaviy qahramon taqdirining parallel tasviri, “So‘nggi dunyo” romanida antik mifologiya va postmodernistik badiiy tafakkurning uyg‘unlashuvi, “Morbus Kitahara” asarida esa urushdan keyingi muqobil tarix, inson taqdiri, xotira va izlanish motivlarining badiiy talqini ochib beriladi. Shuningdek, Ransmayr ijodida tarixiy materialni qayta badiiy konstruksiya qilish, mifologik va zamonaviy unsurlarni uyg‘unlashtirish hamda insonning murakkab ruhiy holatini tasvirlash kabi xususiyatlar yoritiladi. Maqolada yozuvchining zamonaviy Avstriya adabiyotidagi o‘rni va jahon adabiyoti bilan bog‘liq ijodiy izlanishlari ham ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar

Kristof Ransmayr, zamonaviy Avstriya adabiyoti, “Muz va zulmat dahshatlari”, “So‘nggi dunyo”, “Morbus Kitahara”, postmodernizm, tarixiy roman, mifologiya, badiiy-fantastik tasvir, vaqt va makon, tarixiy xotira, izlanish motivi, muqobil tarix.

DOI: 10.5281/zenodo.23278677

Kristof Ransmayr 1954-yil 20-martda Yuqori Avstriyaning Wels shahrida tug‘ilgan. Bolaligini Traunsee ko‘li bo‘yidagi Gmunden yaqinidagi Roitham qishlog‘ida o‘tkazgan. O‘n sakkiz yoshida Lambaxdagi monastir gimnaziyasini tamomlagan. 1972–1978-yillarda Vena shahrida falsafa va etnologiya yo‘nalishlarida tahsil olgan [2].

Ransmayr adabiy faoliyatini 1979-yilda Vena shahrida chop etiladigan “Extrablatt” oylik jurnalida muharriri sifatida boshlagan, va “Transatlantik”, “Geo” va “Merian” kabi nashrlar bilan mustaqil ijodkor sifatida hamkorlik qilgan. 1982-yilda uning “*Yorqin tanazzul. Drenaj loyihasi yoxud muhim mohiyatning kashf etilishi*“ (*“Strahlender Untergang. Ein Entwässerungsprojekt oder die Entdeckung des Wesentlichen”)* asari nashr etilgach, u mustaqil yozuvchi sifatida e’tirof etiladi.

1984-yilda Ransmayrning „*Muz va zulmat dahshatlari*“ *(“Die Schrecken des Eises und der Finsternis”)* romani chop etilgandi. Ikki yildan so‘ng u Germaniya sanoatining federal uyushmasi adabiyot mukofoti hamda Vena shahri tomonidan beriladigan „Elias-Canetti“ stipendiyasiga sazovor bo‘ladi. 1988-yilda „*So‘nggi dunyo*“ *(“Die letzte Welt”)* romani katta va kutilmagan muvaffaqiyat qozonadi.

1988-yildan boshlab Ransmayr Indoneziya, Hindiston, Tailand, Yaponiya, Kanada, AQSh, Meksika, Braziliya, Paragvay va Irlandiya kabi mamlakatlarga uzoq muddatli safarlar qiladi. Uning “*Yorqin tanazzul. Drenaj loyihasi yoxud muhim mohiyatning kashf etilishi*“, „*So‘nggi dunyo*“ va “*Morbus Kitahara”* romanlari dunyoning o‘ttizdan ortiq tilga tarjima qilingan. 1988-yilda Germaniya kitob sotuvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasida Ransmayr “Yil muallifi” deb e’tirof etilgan.

1996-yilda u “Morbus Kitahara” romani uchun Yevropa Ittifoqining „Aristeion“ adabiyot mukofotini

Salman Rushdie bilan birgalikda oladi. Mazkur romani nashr etilguniga qadar Ransmayr bir qator nufuzli adabiy mukofotlar bilan taqdirlangandi. 2001-yilda uning ilk teatr asari *„Ko‘rinmas. Uch sohilga qaratilgan tiriada“ (“Die Unsichtbare. Tirade an drei Stränden”)* Zalsburg Festivalda ilk bor sahnalashtirilgan.

2022-yilda ijodkorning she’r va balladalardan iborat *„Shakarli osmoni ostida“* (“Unter einem Zuckerhimmel”) nomli to‘plami nashr etiladi. 2024-yilda esa *„U paytlar menga hali o‘lim begona edi“* (“Als ich noch unsterblich war”) nomli hikoyalar to‘plami hamda muallifning o‘z fotosuratlari bilan bezatilgan *„Qayerga bo‘lsa ham baribir, bolaginam“ (“Egal wohin, Baby”)* nomli kitobi chiqadi. Shu davrda Ransmayr ijodiga bag‘ishlangan *„Gulxan atrofidagi hisobot“ (“Bericht am Feuer”)* nomli asar ham alohida nashr sifatida e’lon qilingan.

Muallif o‘z asarlari uchun ko‘plab nufuzli adabiy mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Jumladan, u Fridrix Ho‘lderlin, Frants Kafka, Bertolt Brext va Genrix fon Kleist nomlari bilan ataluvchi adabiy mukofotlar, Premio Mondello sovrini, Prix du meilleur livre étranger hamda Prix Jean Monnet de Littérature Européenne mukofotlarini qo‘lga kiritgan. Eng so‘nggi e’tirof sifatida u 2023-yilda Janubiy Koreyaning Park Kyung Prize adabiy mukofoti bilan taqdirlangan. Hozirda Kristof Ransmayr Irlandiya va Vena shaharlarida yashab, mustaqil yozuvchi sifatida faoliyat olib bormoqda.

Ransmayrning *„Muz va zulmat dahshatlari“* nomli ilk romani haqida to‘xtalib o‘tamiz. Muallifning uch romanidan aynan ushbu asar eng murakkab vaqt strukturasiga ega. Unda turli tarixiy qatlamlarda kechadigan, ko‘p yo‘nalishli syujet chiziqlari o‘zaro uyg‘unlashadi.

Roman ikki asosiy syujet orqali yaratilgan bo‘lib, ular orasida taxminan yuz o‘n yillik vaqt masofasi mavjud. Birinchi syujetida 1872–1874-yillarda amalga oshirilgan Avstriya–Vengriya Shimoliy qutb ekspeditsiyasining tarixiy voqealari tasvirlanadi. Ikkinchi syujetida esa 1981-yilda yashagan, tarixiy ekspeditsiyadan chuqur ta’sirlangan italiyalik Josef Mazzinining hayotidan hikoya qilinadi. U ham Shimoliy qutbga yo‘l oladi va u yerda sirli tarzda g‘oyib bo‘ladi. Mazzini obrazi ma’lum ma’noda hikoyachi bilan tarixiy ekspeditsiya o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi. U 1872–1874-yillardagi voqealarni o‘rganadi va o‘z taqdiri orqali ularni zamonaviy davr bilan bog’laydi [4].

Asosiy syujet 1872-yil mart oyida leytenant Karl Veyprextning Avstriya–Vengriya imperiyasi va qirolligi tomonidan uyushtiriladigan Shimoliy qutb ekspeditsiyasi uchun ekipaj a’zolarini tanlash jarayoni bilan boshlanadi. May oyining oxirida ekspeditsiya Venadan yo‘lga chiqadi va 13-iyunda Bremerxavendan Admiral Tegetthoff kemasi bortida safar boshlanadi. Tromso shahrida, ya’ni sivilizatsiyalashgan dunyoda bir necha kun to‘xtaladi va chana itlari sotib olinadi. 1872-yil 14-iyulda esa ekipaj o‘z taqdiri sari, ya’ni abadiy muzliklar sari yo‘l oladi.

Safar boshlanganidan ko‘p o‘tmay suzib yuruvchi muz maydonlariga duch kelinadi va Tromsodan jo‘nab ketilganidan atigi qirq kun o‘tib, Admiral Tegetthoff Muz okeanida muzlar orasida qisilib qoladi. Kema bir yildan ortiq vaqt davomida manyovr qila olmay, muz bo‘laklari bilan birga oqim bo‘ylab sudralib yuradi. Oktyabr oyining oxirida quyosh botadi va ekipaj uni faqat fevral oyida yana ko‘ra oladi. 1873-yil 30-avgustda ular Arktikadagi arxipelagni kashf etib, unga Imperator Frans Iosif Yeri deb nom beradilar.

Kema qotib qolgan muz bo‘lagi arxipelagga yopishib qolgani sababli quruqlikdagi tadqiqot safarlarini amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ushbu ekspeditsiyalarga quruqlikdagi qo‘mondon Julius Payer rahbarlik qiladi. Tadqiqot yurishlari unda ishtirok etganlarning jismoniy va ruhiy imkoniyatlari chegarasigacha boradi. Vaqt o‘tishi bilan vaziyat tobora umidsiz tus oladi, ekipaj a’zolari esa xastalik va holdan toyish bilan yuzlashadilar [4].

Shu sharoitda suv va muzdagi umumiy qo‘mondon Veyprext Yevropaga qaytish rejasini ishlab chiqadi. 1874-yil 20-mayda, muvaffaqiyat ehtimoli nihoyatda past bo‘lishiga qaramay, ekspeditsiya a’zolari qutqaruv qayiqlari yordamida muzlar orasidan yurishni boshlaydi. Avgust oyiga kelib ular tobora kengayib borayotgan muzsiz suv hududlariga yetib boradilar. Nihoyat, 1874-yil 24-avgustda, ya’ni ekspeditsiyaning ikkinchi yozida ular boshqa bir kema tomonidan topib olinadi.

Shundan so‘ng Avstriyaga qaytish amalga oshiriladi. Dastlab ekspeditsiya qahramonona jasorat sifatida ulug‘lanadi, biroq oradan ko‘p o‘tmay u jamoatchilik xotirasidan chiqib ketadi. Veyprext qaytishdan bir necha yil o‘tib vafot etadi. Payer esa ma’ruzalar o‘qiydi, rassomlik bilan shug‘ullanadi, turmush quradi va 1915-yil

29-avgustda miya insultidan vafot etadi.

Ikkinchi syujetda 1872-yilgi tarixiy Shimoliy qutb ekspeditsiyasi ishtirokchilaridan birining avlodi bo‘lgan italiyalik Josef Mazzinining badiiy (to‘qima) taqdiri bayon etiladi. Oradan yuz yildan ortiq vaqt o‘tgach, u Payer va Veyprext izidan borib, Arktikaga safar qiladi. Bu sayohatni u bir necha oy davomida puxta tayyorlaydi. 1981-yil 26-iyulda u Venani tark etib, Osloga uchadi, u yerdan Tromsoga yo‘l oladi va bir necha kundan so‘ng Shpitsbergen orolidagi Longyearbyen shahriga yetib boradi.

Qutb tarixi haqida kitob yozish niyatini bildirgan holda, Mazzini Cradle kemasi bortida Shpitsbergendan Frans Iosif Yeriga yo‘l olishi rejalashtirilgan ilmiy ekspeditsiyada ishtirok etadi. Biroq arxipelagga o‘tish imkoni bo‘lmagani sababli ekspeditsiya ortga qaytadi. Qaytishdan so‘ng Cradle Shpitsbergenni tark etadi, Mazzini esa u yerda qoladi. U okeanograf Fyrandga tegishli itlar qo‘shilgan chanani boshqarishni o‘rganishga qat’iy qaror qiladi va piyoda holda ko‘p kunlik yurishlarni amalga oshiradi. Fyrand bir necha kunga Shpitsbergenni tark etgan paytda, Mazzini itlar qo‘shilgan chana bilan bedarak yo‘qoladi va undan hech qanday iz qolmaydi. Faqatgina chananing ikki iti 1981-yil 11-dekabrda vahimaga tushgan va yovvoyi holatda qaytib keladi.

Ransmayrning yana bir e’tiborli asari „*So‘nggi dunyo*“ (*Die letzte Welt)* romani bo‘lib, unda milodiy 8-yilda Rim shoiri Ovidning imperator Augustus tomonidan surgun qilinishi tarixiy jihatdan aniq belgilangan boshlang‘ich nuqta sifatida olinadi va shu asosda badiiy-fantastik tasavvurga boy syujet quriladi. Romanda Ovidiyning tarixiy manbalarda (xususan, “Surgundan maktublar”da) tilga olingan do‘sti rimlik Kotta Qora dengiz bo‘yidagi Tomi shahriga yo‘l oladi. U bu yerda nafaqat surgun qilingan shoirning o‘zini, balki Ovidiyning mashhur asosiy asari sanalgan “Metamorfozalar”ning bir nusxasini topishga urinadi.

Biroq “kulrang shahar” bobida quyidagicha ta’riflaydi. U tog‘lar qo‘ynidagi vayronaga aylangan uyi, qari xizmatkori Pifagor va tobora jumboqli tus olayotgan “Metamorfozalar”ning belgilariga (suratlar, obrazlar va g‘aroyib hodisalarda namoyon bo‘ladigan ishoralarga) duch keladi. Oxir-oqibat Kottaning o‘zi ham o‘zgarishlar hukmron bo‘lgan sirli va noreal dunyoda go‘yo yo‘qolib boradi, “so‘nggi dunyo”ning yemirilishi yana adabiyotning o‘ziga aylanadi.

Roman o‘n besh bobdan iborat bo‘lib, voqealar taxminan bir yil davomida apreldan yanvargacha bo‘lgan davrda kechadi. Asar “in media” usulida boshlanadi, ya’ni aprel oyining oxirida Kottaning Rimdan Tomiga qilgan dengiz safari bilan ochiladi. Syujet rivoji davomida o‘tmishga qaytishlar kiritiladi. Kottaning Rim haqidagi xotiralari, Nasoning (Ovidiyning) yuksalishi va qulashiga doir esdaliklar yoki Tomi aholisi o‘z avvalgi hayotlari haqida so‘zlaydi. Biroq Kotta Tomida qancha uzoq qolsa, Rim haqidagi xotiralar shuncha kamayib boradi. Ransmayr shuningdek roman ichiga ichki matnlarni film namoyishlari, hikoyalar yoki tasvirlar shaklida qo‘shadi [1].

Ransmayrning bu romanida rimlik Kotta Ovidiy va uning *“Metamorfozalar”* qo‘lyozmasini izlab, nafaqat “dunyoning oxiri”ga, balki matnning o‘z makoniga ham sayohat qiladi va estetik mahoratga tayanadigan hikoya oqimiga tortilib ketadi. Bu hikoyada halokat manzaralari mohirona, ta’sirli bir uslubda taqdim etiladi. Ransmayr postmodernizm uslubida qadimgi va zamonaviy afsonalarni, Ovidiy metamorfozalari bilan Gollivud mifologiyasini o‘zaro bog‘laydi. Kotta Qora dengiz bo‘yidagi Tomiga qadam qo‘ygach, Ovidiy qahramonlari turli qiyofalarda tobora ko‘proq matnga kirib keladi. Natijada dunyo parchalana boradi va zulmatga cho‘madi. Afsonaning o‘zi ham barqaror shaklga ega bo‘lolmaydi; uning yaxlitligi endi oldindan mavjud emas, balki yozish jarayonida qayta yaratilishi lozim bo‘ladi.

Kristof Ransmayr „*So‘nggi dunyo*“ romanida antik afsonani postmodernizmga asoslangan “metamorfozalar adabiyoti”ga aylantiradi [7]. Mashhur germanist Wendelin Schmidt-Denglerning ta’kidlashicha [5], Ransmayrning muhim yutug‘i shundaki, u “avstriyalik mavzularga qaramlikdan voz kechib, yana jahon adabiyoti bilan bog‘liq mas’uliyatlarga qayta yuzlangan”. Shuningdek, asarda dolzarb muammolar badiiy jihatdan qayta ishlangan bo‘lib, ular o‘quvchi uchun yopiq yoki murakkab bo‘lib qolmaydi. Ransmayr “badiiy mahsulotni bizning realizmga ham tegishli bo‘la oladigan, yangicha tasavvur shaklida” yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Diqqat bilan o‘qilganda esa bu asar silliq emasligi, balki “har bir satrda yorqin ko‘rinib turgan yoriqlar va uzilishlar”ga ega ekani ayon bo‘ladi. Shu ma’noda, ushbu roman, ayniqsa, nemis tilidagi adabiyotda mifologik obrazlar bilan hikoyaviy munosabatda yangi mezonlar belgilagan asar sifatida baholanadi [5].

Kristof Ransmayrning uchinchi romani “*Morbus Kitahara*” ham “izlanish” motivi atrofida birlashadi.

Qahramonlar doimo izlovchi sifatida tasvirlanadi, bu jarayonda ular yo‘qoladi, g‘oyib bo‘ladi yoki tubdan o‘zgaradi. Xususan, bu romanda yo‘qolgan shaxslar bevosita hikoyaning sababiga aylanadi. Ular adabiy subyektlarni qayta tiklashni oqlaydi va yana bir bor “izlanish”ning boshlang‘ich nuqtasiga aylanadi [6].

Mazkur romanda Ransmayr haqiqiy tarixiy urushdan keyingi dunyoga qarshi muqobil olam yaratadi va shu orqali yangi bir “o‘tmish”ni konstruksiya qiladi. Asarni “o‘tmishga joylashtirilgan utopiya romani” sifatida talqin qilish mumkin. Romanning g‘oyaviy asosida shunday faraz yotadi-ki, Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng AQSh moliya vaziri Henry Morgenthau Jr. rejasining amalga oshirilishi tasavvur qilinadi. Ushbu reja Germaniyani qayta tiklash o‘rniga uni agrar mamlakatga aylantirishni ko‘zlagan edi. Ransmayr romanida sivilizatsiya tanazzul – ho‘kiz aravalari va o‘zini-o‘zi ta’minlash davriga qaytish tasvirlanadi. O‘nlab yillar davom etgan harbiy okkupatsiya har qanday yangilanishni to‘sadi va aholini ramziy, sahnalashtirilgan “jazolash marosimlari”ga majbur qiladi [6].

Ana shu noqulay, yovvoyi manzarada uch qahramon Bering, Lili va Ambras birlashadi, ularning har biri o‘ziga xos tarzda o‘tmish ta’siri ostida yashaydi. So‘nggi bombardimon kechasida tug‘ilgan Bering ko‘z kasalligidan nigohning qorong‘ilashuvi bilan kechuvchi “Morbus Kitahara”dan aziyat chekadi. Asarga nom bergan bu kasallikni butun millatlarning ayb va mas’uliyatni qayta ishlashdagi “ko‘r nuqtalari”ning metaforasi sifatida talqin qilish mumkin.

“Morbus Kitahara” romani adabiy tanqidda bir xil baholanmagan. Volker Hage Der Spiegel (1995-yil 18-sentyabr) sahifalarida asarning “kompozitsion qudrati va hikoyaviy mulohazaliligi”ni e’tirof etib, uni muvaffaqiyatli nasr namunasi sifatida baholaydi. Aksincha, Tomas E. Shmidt Frankfurter Rundschau (1995-yil 11-oktyabr)da romanni “melodramatik vositalar bilan olib borilgan dunyoqarashli badiiy hunarmandchilikning davomchisi” sifatida keskin tanqid qiladi. Batafsil o‘qilganda, Hage qayd etgan “hikoyali mulohazalilik” bilan to‘liq kelishish qiyinligi ayon bo‘ladi.

Ransmayr romanda Buyuk urushdan keyingi yillarni Salzkammergutdagi Ebensee qishlog‘idan ilhomlangan Moor qishlog‘ida tasvirlaydi. “Oranienburg tinchligi”dan so‘ng amerikaliklar mag‘lub Germaniyaga to‘liq deindustrializatsiyani majburiy tarzda joriy etadi. Buning natijasida tanqislik va buyurilgan tavba davri boshlanadi (Morgentau rejasi romanda Stellamour rejasi deb ataladi). Ko‘l bo‘yidagi tosh konida ilgari konslager joylashgan edi. Endilikda Moor aholisi g‘oliblar tomonidan turli jazolash sahnalari, bu jarayonda bir vahshiylik boshqasini almashtiradi.

Shu fon ichida uchburchak munosabatlar rivojlanadi: konslagerning sobiq mahbusi, endi esa tosh koni boshqaruvchisi bo‘lgan Ambras; uning qo‘riqchisi Bering (ilgari Moorning temirchisi); va tog‘li hududda qolib ketgan yosh qochqin ayol Lili. Bering mexanika va mashinalarga oshno bo‘lgani bois Moorning eng qudratli odami hisoblangan “Itlar qiroli” Ambras bilan tanishadi. U Ambrasning Moor hududidagi yagona avtomobili bo‘lgan limuzinini ta’mirlaydi va uning shaxsiy qo‘riqchisiga aylanadi. Ambras bu lavozimni harbiylar tomonidan olgan, chunki u urushdan zo‘rg‘a omon qolgan sobiq majburiy ishchi sifatida “jabrlanuvchi” hisoblanadi. Bering xizmatkor sifatida Ambrasning chirib borayotgan villasiga ham ko‘chib o‘tadi [7].

Bering Ambras orqali Lili bilan tanishadi va unga oshiq bo‘ladi, biroq Lili uning tuyg‘ulariga faqat bir kechalik qiziqish bilan cheklanadi. O‘sha kechada Bering Morbus Kitahara nigohning asta-sekin qorong‘ilashuvi bilan kechuvchi kasallikka chalinadi. Yarim ko‘r otasi onasi vafotidan so‘ng tog‘lar bo‘ylab tentirab, o‘zini yana urushda yurgandek his qila boshlagach, Bering uni Lili bilan birga Brand shahriga olib boradi. Tog‘lar orqali yo‘l yurish chog‘ida Bering bir tovuq o‘g‘risini o‘ldiradi va shu voqeadan so‘ng u bilan Lili o‘rtasida nafrat paydo bo‘ladi [6].

Brand shahrida Bering o‘z kasalligi uni to‘liq ko‘rlikka olib bormasligini bilib oladi. Shundan so‘ng u hududni bo‘shatib, harbiy mashg‘ulot maydoniga aylantirayotgan qo‘shinlar bilan birga qaytib ketadi. Ambras, Lili va Bering Braziliyaga yo‘l oladi; u yerda ikki erkak boshqa bir tosh konida ishlashni rejalashtiradi. Ularni yirik yer egasining xizmatkori Muyra o‘z xo‘jayinining saroyiga joylashtiradi. Taxminan ikki hafta o‘tgach, to‘rtovlon “Itlar oroli” deb ataluvchi, sobiq qamoqxona joylashgan hududga sayohat qiladi. Shu yerda Bering Muyrani Lili deb o‘ylab otib tashlaydi, aslida esa Lili baliqchi qayig‘ida qaytib ketgan bo‘ladi. Muyrani izlash jarayonida Bering endi aqlini yo‘qota boshlagan Itlar qiroli Ambrasga duch keladi va u o‘zini yana urush paytidagi lagerda yurgandek tasavvur qiladi. Ambras jarlikdan o‘zini tashlaydi va arqon bilan unga bog‘langan

Beringni ham o‘limga tortib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Fröhlich M. Literarische Strategien der Entsubjektivierung. Das Verwinden des Subjekts als Provokation des Lesers in Christoph Ransmayrs Erzählwerk // Literatura. Wissenschaftliche Beiträge zur Moderne und ihrer Geschichte / Hrsg. von Walter Gebhard u. a. Bd. 13. - Würzburg: Ergon, 2001. - S. 19.

[2] Holiyarov L. Zeitgenössische österreichische Literatur. - Taschkent: Fan va Texnologiya Verlag, 2007. - S. 84–85.

[3] Ransmayr Ch. Die letzte Welt: Roman. - Frankfurt/Main: Eichborn, 1988.

[4] Schmidt R. Die Zeitstruktur in den Romanen von Christoph Ransmayr: Dipl.-Arb. - Universität Wien, 2005. - S. 26–27.

[5] Schmidt-Dengler W. Bruchlinien: Vorlesungen zur österreichischen Literatur 1945 bis 1990. - Salzburg; Wien: Residenz, 1995. - S. 532–533.

[6] Wiesbauer M. Monomythische Tiefenstrukturen in Christoph Ransmayrs Roman Morbus Kitahara: Dipl.-Arb. - Universität Wien, 2004. - S. 7, 67–69.

[7] Zeyringer K. Österreichische Literatur seit 1945. - Innsbruck: Haymon, 2001. - S. 201–202, 485-488.

[8] Xoliyarov L. Hozirgi zamon Avstriya adabiyoti. - Toshkent: Firdavis-Shoh nashriyoti, 2026. - B. 79-86.